

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

OTAMIRZAYEV OYBEK MURODULLO O'G'LI

**YER OSTI SUVLARIDAN FOYDALANISH VA ULARNI MUHOFAZA
QILISHNING HUQUQIY HOLATI**

12.00.06. - Tabiiy resurslar huquqi. Agrar huquq. Ekologik huquq.

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri - 2026-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

Yer osti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning huquqiy

holati.....3

Otamirzaev Oybek

Legal status of groundwater use and their protection.....21

Отамирзаев Ойбек Муродулло угли

Правовое положение использования и её охраны подземных вод.....39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....43

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

OTAMIRZAYEV OYBEK MURODULLO O'G'LI

**YER OSTI SUVLARIDAN FOYDALANISH VA ULARNI MUHOFAZA
QILISHNING HUQUQIY HOLATI**

12.00.06. - Tabiiy resurslar huquqi. Agrar huquq. Ekologik huquq.

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri - 2026-yil

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Yu1954 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus, (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsul.uz) va “ZiyoNET” ta’lim Axborot ta’lim tarmog‘ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Uzakova Guzal Sharipovna
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mahkamov Durbek Nematovich
yuridik fanlar doktori, professor

Jumanov Azamat Oralbaevich
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/2025.27.12.Yu.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust soat 15-00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel./faks: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1517-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: +99871 233-66-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 4-avgust kuni tarqatildi.

(2026-yil 4-avgustdagi 16-raqamli reyestr bayonnomasi)

B.K.Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

E.X.Egamberdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sh.X.Fayziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda global iqlim o'zgarishi, aholi soni va iqtisodiyot tarmoqlarining o'sishi, ularning suvga bo'lgan ehtiyoji, suv resurslari tanqisligi yildan-yilga ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Yer osti suvlaridan foydalanishda jamoatchilik nazorati zaifligi, ruxsatnomasiz yer osti quduqlarini burg'ilashlar, aniq suv hisobini yuritishni takomillashtirish, javobgarlikni kuchaytirish zaruriyati mavjud. BMT ma'lumotlariga ko'ra, "dunyo bo'yicha qariyb 2.2 mlrd aholi toza ichimlik suvi iste'moli imkoniyatiga ega emas, 3.5 mlrd aholi esa toza texnik suvlarga ehtiyoji mavjud. 2050-yilda jahon aholisining 40 foizi chuchuk suv tanqisligini sezishi, 20 foizi esa chuchuk suvsiz yashashga majbur bo'lishi ehtimol qilinmoqda"¹. Bu esa o'z navbatida suvni tejash, uni ifloslanish darajasini pasaytirish hamda suvdan samarali foydalanishning qonunchilik asoslarini rivojlantirishni taqozo etadi. Suv qonunchiligini takomillashtirish orqali suv resurslarni muhofaza qilish, global miqyosda ularni saqlab qolishga oid huquqiy normalarni ishlab chiqish hozirda har mamlakat va ayni paytda jahon hamjamiyati oldidagi dolzarb muammoga aylandi. "Yer osti suvlari Yer yuzidagi barcha chuchuk suvlarning taxminan 99 % qismini tashkil qiladi"².

Jahonda yer osti suvlaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, turli davlatlarda yer osti suvlari zahiralarini monitoring qilish tizimlarini takomillashtirish, gidrogeologik tadqiqotlarni kengaytirish, yer osti suv resurslarini raqamli modellashtirish, sun'iy ravishda suv havzalarni to'ldirish texnologiyalarini joriy etish hamda yer osti suvlarining ifloslanishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha izchil sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Shuningdek, dunyo aholisini ekologik huquqiy madaniyatini oshirish, yer osti suvlariga bo'lgan munosabatni yaxshilash, barcha suv resurslarining har bir tomchisidan tejamkorlik va maqsadga muvofiqlik asosida foydalanish, transchegaraviy yer osti suvlari masalalarida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, milliy qonunchilikni zamonaviy ekologik va huquqiy talablarga mos ravishda rivojlantirish, shuningdek ushbu yo'nalishda innovatsion huquqiy hamda institutsional yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar rivojlantirilmoqda.

Respublikamizda iqlim o'zgarishi suv ta'minoti va yer usti hamda yer osti suvlari resurslarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu, ayniqsa, kam suvli yillarda, daryolar tabiiy rejimining o'zgarishi natijasida kam suvli texnogen sharoitlar paydo bo'lganda, shuningdek, yer usti oqimining o'rtacha yillik xarajatlari sezilarli darajada pasayganda yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, "global iqlim o'zgarishi natijasida so'nggi 50-60 yil ichida Markaziy Osiyodagi muzliklar maydoni taxminan 60 foizga qisqardi. Taxminlarga qaraganda, 2050-yilga kelib Sirdaryo havzasidagi suv resurslari 5 foizga, Amudaryo havzasidagi suv resurslari

¹ The United Nations World Water Development Report 2024, Water crises threaten world peace (<https://www.un.org/sustainabledevelopment/blog/2024/03/un-world-water-development-report/#:~:text=According%20to%20the%20new%20report,access%20to%20safely%20managed%20sanitation>)

² <https://hydrogeology.uz/>

esa 15 foizga qisqaradi³. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Dunyoda suv tanqisligi muammosi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu bois islohotlarimizning ilk kunlaridanoq suvdan oqilona foydalanishni davlat siyosati darajasiga olib chiqdik. Yaqinda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng qo‘llash, suv inshootlarini modernizatsiya qilish, sug‘orish tadbirlari bo‘yicha kelgusi uch yil uchun qiymati 5,5 milliard dollarlik katta dastur qabul qildik”⁴. Global iqlim o‘zgarishining kuchayib borayotgan ta’siri butun dunyo mamlakatlarida aholi jon boshiga o‘rtacha yillik suv ta’minoti darajasini qisqartira boshlaydi. Shu bois barcha mamlakatlarda yer osti suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti BMTning “Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo‘yicha Konvensiya”(1992), “Xalqaro suv oqimlaridan yo‘nalishsiz foydalanish huquqi bo‘yicha Konvensiya”(1997), O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi(2023), O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksi(2025), “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi(1992), “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi(2022), “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi(2023) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-dekabr “Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 439-son, 2023-yil 24-oktabr “Ichimlik suv ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”dagi 343-son, 2023-yil 20-iyun “Ma’muriy islohotlar doirasida suv xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 101-son qaror va farmonlari hamda mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor

yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturining ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Yer osti suv qonunchiligi hujjatlarini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasida yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu bilan birga aytish lozimki, O‘zbekistonda suv qonunchiligi hujjatlarini takomillashtirishning umumiy huquqiy jihatlarini H.Sh.Hayitov, N.Sh.Rajabov, A.O.Jumanov, Z.Sh.Shofiyevlar⁵ning ilmiy ishlarida qisman tadqiq etilgan.

³ O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. (2023). Atrof-muhit holati to‘g‘risida milliy ma’ruza: O‘zbekiston. Barqaror rivojlanish xalqaro instituti

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 26.12.2025 (<https://president.uz/oz/lists/view/8834>)

⁵ Hayitov H.Sh. “O‘zbekiston Respublikasida suv qonunchiligining rivojlantirishi va takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi yuridik fanlar doktori(DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi. 2024; Rajabov N.SH. Ekologik me’yorlash tizimini huquqiy tartibga solish masalalari. Yu.f.d dissertatsiyasi. 2023; Jumanov A.O “Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlashning ekologik-huquqiy muammolari” avtoreferat, 2019; Shofiyev Z.SH. “O‘zbekiston Respublikasida fermer xo‘jaliklarining suv resurslaridan foydalanishini huquqiy tartibga solish muammolari”.Nomzodlik disser. 2023.

Shuningdek, MDH davlatlari doirasida suv qonunchiligi hujjatlarini takomillashtirish masalalari Y.A.Gledko, M.M.Brinchuk, A.A.Mukasheva, A.L.Timofeyev, M.Absametov, Y.V.Novikov, A.S.Shirobokov, O.S.Kolbasov, V.V. Petrov, N.V.Kichiginlar ilmiy ishlarida umumiy asoslarda sohani u yoki bu darajada o'rganilgan bo'lsa, E.N.Muxinaning (2011) va A.Borodinaning (2018) to'g'ridan-to'g'ri yer osti suvlarini muhofazasi doir ilmiy ishlarni olib borishgan. Xorijiy mamlakatlardan Joseph W. Dellapenna, J.Grönwall, K.Danert, F.Van der Aa, M.Sophocleous, F.Pacheco, K.Conti, J.Gupta, Y.Zhang, F. Molle, S.Burchi, K.Mechlem⁶ kabi olimlarining asarlarida suv qonunchiligi muammolari tadqiq qilingan va ularning tegishli yechimlari ishlab chiqilgan.

Biroq, yangi O'zbekiston sharoitida yer osti suv qonunchiligini takomillashtirish, undagi bo'shliqlar va ichki ziddiyatlarni bartaraf etish, takomillashtirishga oid masalalarning alohida tadqiq etilmaganligi mazkur mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Ekologik barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yer osti suvlaridan xavfsiz va samarali foydalanish yuzasidan qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish hamda muammolarni tahlil etish asosida huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yer osti suvlari tushunchasi, undan oqilona foydalanish, yer osti suvlari monitoringi tushunchalarini takomillashtirish va ishlab chiqish hamda huquqiy holatini umumiy tavsiflash;

⁶ Brinchuk M. M. Legal Protection of the Environment from Pollution by Dangerous Industrial Wastes //Pace Envtl. L. Rev. – 1987; Мукашева, А. А. Теоретические и методологические проблемы водного права Республики Казахстан в современных условиях... дис. на соиск. учен. степ.д.ю.н.- Астана, 2010 - 156 с; Тимофеев Л.А. Правовые проблемы обеспечения населения России питьевой водой нормативного качества: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Саратов: 2004; Absametov M. et al. Assessment of the groundwater for household and drinking purposes in central Kazakhstan //Groundwater for Sustainable Development. – 2023; Новиков Ю.В. Экология, окружающая среда и человек. Учеб. пособие. -М.:«ФАИР», 1998; Широбоков А.С Правовые основы установления и применения лимитов на выбросы и сбросы загрязняющих веществ и микроорганизмов //Юрист. 2006; Кичигин Н.В. Правовые проблемы публично-экологического контроля. Монография. М., 2012; Мухина Эвелина Николаевна. Правовое регулирование использования и охраны подземных вод. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва, 2011; Бородин Алина. Правовое регулирование использования и охраны подземных вод в Республике Казахстан в условиях перехода к «зеленой экономике». Диссертация на соискание ученой степени доктора философии. – Алматы, 2018; Joseph W. Dellapenna, A Primer on Groundwater Law, 49 IDAHO L. REV. 265 (2013); Grönwall, J (2022). Groundwater policy and planning; Sophocleous, Marios. "Interactions between groundwater and surface water: the state of the science." Hydrogeology journal 10.1 (2002); Conti,K, Gupta,J. "Protected by pluralism? Grappling with multiple legal frameworks in groundwater governance." Current Opinion in Environmental Sustainability 11 (2014); Zhang,Y, et al. "Changes in soil water holding capacity and water availability following vegetation restoration on the Chinese Loess Plateau." Scientific Reports 11.1 (2021); Alvar Closas, François Molle. Groundwater governance in Europe. 2016; Stefano Burchi, Kerstin Mechlem. Groundwater in international law. 2005.

yer osti suvidan foydalanish hamda muhofaza qilish sohasidagi dolzarb ekologik, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy masalalarni ilmiy-huquqiy jihatdan keng tahlil etish;

yer osti suvidan foydalanish uchun ruxsatnomalar olish tartibi tizimli tahlil o'tkazish;

yer osti suvidan foydalanishda mavjud ekologik va huquqiy talablarni aniqlash va tizimlashtirish;

yer osti suvlaridan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazorati mexanizmlari, yer osti suvlari monitoringini yuritishning huquqiy asoslari, ularni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

yer osti suvlari davlat kadastri yuritishning huquqiy ahamiyati, uni yaxshilash mexanizmlarini rivojlantirish;

xalqaro hujjatlar tahlili va xalqaro tajriba asosida O'zbekiston Respublikasi yer osti suv qonunchiligini takomillashtirishda foydalanish istiqbollarini o'rganish va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti yer osti suvlari bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish hamda bu sohadagi salbiy holatlar tufayli atrof-muhitga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararli ta'sirlardan himoya qilish bilan bog'liq ekologik-huquqiy munosabatlar olingan.

Tadqiqotning predmeti yer osti suvlari atrof muhitga oid qonun hujjatlari, ularni qo'llash amaliyoti, sohaga oid xalqaro va xorijiy tajriba hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlardan iboratdir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini olib borishda induksiya, deduksiya, tarixiy, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy-huquqiy, statistik, azaliz, sintez kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yer osti suvlariga quduqlarni qonunga xilof ravishda burg'ilash va bu orqali kelib chiqqan ekologik-huquqiy zararni kamaytirish maqsadida bu harakatlar uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash taklifi sohadagi salbiy jarayonlarni oldini olishga xizmat qilishi asoslantirilgan;

yer osti suvlari konlari va suvli qatlamlari hamda ularning yer qa'risiga yoki yer yuzasiga sizib chiqish zonalarini yer osti suv obyektlarining toifalari qatoriga kiritish zaruriyati asoslantirilgan;

yer osti suvlarining zaxiralari O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlashga oid normalarni belgilash zarurligi hamda bu sohadagi salbiy jarayonlarni oldini olishga xizmat qilishi asoslantirilgan;

yer osti suvlaridan turli ehtiyojlar uchun foydalanish O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi organlari tomonidan suv xo'jaligi organlari bilan birgalikda ularning yer usti suvlari bilan o'zaro bog'liqligi hisobga olingan holda tartibga solishning ahamiyati asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yer osti suvlaridan bilan bog'liq munosabatlarda yer osti suvlari, yer osti suvlaridan oqilona foydalanish, yer osti suvlari monitoringi tushunchalariga ta'riflar

ishlab chiqilib, yer osti suvlarining huquqiy maqomini mustahkamlash yuzasidan qonunchilikka takliflar berilgan;

xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlil etilib, yer osti suvlarini yetkazib beruvchilarning huquq va majburiyatlarini takomillashtirish, suvdan foydalanuvchilarning huquqlarini mustahkamlash hamda yer osti suvlari bilan bo'ladigan salbiy jarayonlarni oldini olishga qaratilgan takliflar tayyorlandi;

yer osti suvlari sohasida huquqbuzarliklarni turlari va unga sababiy bog'lanishlar, ularni oldini olish bo'yicha tahliliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

yer osti suvlarni bilan bog'liq maxsus vakolatli organlar vakolatlari kengaytirish, ma'muriy va jinoyat qonunchiligiga puxta o'rganilgan yangi normalar kiritish bo'yicha fikrlar bildirildi;

mavzu doirasida "Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha Konvensiya", "Xalqaro suv oqimlaridan yo'nalishsiz foydalanish huquqi bo'yicha Konvensiya" hamda qator Yevropa Kengashining direktivalari asosida xalqaro standartlarni milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish masalalari yuzasidan takliflar berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, huquqni qo'llash amaliyoti materiallari, xalqaro va xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi normalarining tahlil qilinganligi, rasmiy manbalar hamda ilmiy adabiyotlarga asoslanganligi, olingan xulosalar hamda takliflarning joriy etilganligi tegishli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, ekologik masalalarda huquqiy yordamni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organlarining faoliyatida tegishli qonunchilik normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirishda hamda "Xalqaro ekologiya huquqi", "Suv huquqi", "Transchegaraviy suvlar huquqi" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi. Tadqiqot ishining nazariy asoslariga tayanish kelgusida yer osti suvlarining xalqaro-huquqiy jihatdan tartibga solinishi bilan bog'liq yangi ilmiy izlanishlarni olib borish, yer osti suvlari sohasida shartnomaviy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish hamda xalqaro-huquqiy normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yer osti suvlarini muhofaza qilish va undan foydalanishda huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirishda, yer osti suvlari uchun hisoblagichlar o'rnatish, undan foydalanishda zamonaviy texnologiya va usullarini qo'llash sohasidagi qonun hujjatlarini inventarizatsiyadan o'tkazishda, shuningdek mazkur yo'nalishda tegishli vakolatga ega davlat organlari va tashkilotlarning yer qo'ridan foydalanish uchun xulosa olishdan boshlab to uni to'laonli ishga turishgacha jarayonidagi faoliyatini takomillashtirishga bag'ishlangan qonun hujjatlari, yer osti suvlari bilan bog'liq barcha jarayonlarini qamrab olgan normativlarni tahlil etgan holda, qator qonun va qonunosti hujjatlariga asoslangan takliflar berildi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilganligi. Yer osti suvlaridan foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy holatini tadqiq etish yuzasidan olingan natijalar asosida:

yer osti suvlariga quduqni qonunga xilof ravishda burg'ilash uchun javobgarlikni belgilanish masalasida taklifidan O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 5-maydagi O'RQ-1062-sonli Qonuni 1-moddasi 1-bandi bilan Ma'muriy javobgarlik kodeksning 74-moddasi to'rtinchi qismiga kiritilgan o'zgartirishni shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti 2025-yil 23-sentabrdagi №9/dn-188-son dalolatnomasi). Bu taklif bilan noqonuniy yer osti suvlarini burg'ilash uchun javobgarlik belgilangan;

suv obyektlarining toifalari qatoriga yer osti suvlari konlari va suvli qatlamlari hamda ularning yer qa'risiga yoki yer yuzasiga sizib chiqish zonalari ham kiritilishi kerakligiga oid taklifidan O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 30-iyuldagi O'RQ-1076-sonli Qonuni 1-moddasi bilan Suv kodeksining 8-moddasi ikkinchi qismi ikkinchi xatboshini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti 2025-yil 29-dekabrdagi №3/dn-273-son dalolatnomasi). Ushbu taklif yer osti suvlari muhofazasi doirasini to'laonli belgilashga xizmat qilgan;

yer osti suvlarining zaxiralari O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlashga oid taklifidan O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 30-iyuldagi O'RQ-1076-sonli Qonuni 1-moddasi bilan Suv kodeksining 123-moddasi birinchi qismini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti 2025-yil 29-dekabrdagi №3/dn-273-son dalolatnomasi). Ushbu taklif O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha Davlat komissiyasi vakolatlarini ko'rsatib, uni sohadagi ahamiyatini belgilashga xizmat qilgan;

yer osti suvlaridan turli ehtiyojlar uchun foydalanish O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi organlari tomonidan suv xo'jaligi organlari bilan birgalikda ularning yer usti suvlari bilan o'zaro bog'liqligi hisobga olingan holda tartibga solishga oid taklifidan O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 30-iyuldagi O'RQ-1076-sonli Qonuni 1-moddasi bilan Suv kodeksining 123-moddasi ikkinchi qismi ikkinchi xatboshini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti 2025-yil 29-dekabrdagi №3/dn-273-son dalolatnomasi). Ushbu taklif yer osti suvlari muhofazasi kuchaytirishga hamda belgilanmagan maqsadlarda foydalanishni cheklashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 5 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan monografiya, 10 ta ilmiy maqola (shundan 5 tasi

xorijiy jurnallarda), to'plamlarda 7 ta maqola va tezislar (3 tasi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida ilmiy-tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslantirilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti yoritilgan, shuningdek, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslantirilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan aloqadorligi, usullari, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, Shuningdek, tadqiqotlar natijalarining amaliyotga joriy qilinishi aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yer osti suvidan foydalanish va muhofaza qilishning umumiy yuridik tavsifi”** deb nomlangan birinchi bobida yer osti suvlarining bugungi kunda dunyo ekotizimidagi ahamiyati, aholining ichimlik suvi bilan ta'minlashdagi muhim o'rni, uni huquqiy muhofazasini kuchaytirish masalalari, shuningdek mazkur sohadagi milliy olimlar H.Sh.Hayitov, N.Sh.Rajabov, A.O.Jumanov, Z.Sh.Shofiyevlar, shuningdek xorijiy olimlar E.N.Muxina, E.Borodinalarning ilmiy ishlari o'rganilib, ularning tahlili asosida shaxsiy qarashlar ilgari surilgan.

Tahlil natijasida dissertant yer osti suvlarining ekologik-huquqiy munosabatlar obyekti sifatidagi mazmun-mohiyati, ulardan foydalanishning tarixiy rivojlanishi hamda xalqaro konsepsiya va doktrinalarning nazariy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, yer osti suvlaridan foydalanish va muhofaza qilishning ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik-huquqiy ahamiyati, fuqarolarning suvga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashdagi o'rni, ekologik xavfsizlikni kafolatlash mexanizmlari va milliy qonunchilikni takomillashtirishning dolzarb masalalari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Birinchi bobning birinchi paragrafi *“Yer osti suvlari ekologik-huquqiy munosabatlar obyekti sifatida”* deb nomlanib, unda yer osti suvlaridan foydalanish tadrijiy-tarixiy taraqqiyoti, shunindek, yer osti suvlaridan foydalanishga oid qator konsepsiya va doktrinalar turlari, ularni bir-biridan farqli tomonlari, ijobiy va salbiy taraflari, mamlakatimizda ushbu konsepsiya va doktrinalarni qo'llashdagi kamchiliklar hamda ularni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Dissertant ilmiy yondashuvlar asosida yer osti suvlari tushunchasiga yuridik tavsifni takomillashtirish masalalari, yer osti suvlarini yer osti boyliklari qatoriga kiritish zaruriyati, yer osti suvlari obyekti doirasi belgilash ahamiyati, yer osti suvlariga doir tamoyillari, yer osti suvlari bilan bog'liq ekologik xavfsizlikni ta'minlashning xalqaro huquqiy asoslari, yer osti suvlaridan foydalanishda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha institutsional milliy-huquqiy tizimni ishlab chiqish masalalari ilmiy tahlil qilingan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “*Yer osti suvlaridan foydalanish va muhofaza qilish tartibining ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik huquqiy ahamiyati*” deb nomlanib, yer osti suvlarining hayotning turli sohalari rivojida o‘rni, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlashni bir shakli sifatida yer osti suvlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish masalasi, yer osti suvlari turlari va bugunning rivojida o‘rni tahlil qilingan. Dissertant yer osti suvlari qimmatbaho mineral boylik ekanligi, mamlakat va odamlar hayotida, shuningdek ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishida g‘oyat muhim rol tutishini ko‘rsatib bergan.

Paragraf yakunida dissertant yer osti suvlari tushunchasi yakdil ta’rif berilmaganligi va turlaridan kelib chiqib, uni muhofaza mexanizmlari turlicha ekanligini ta’kidlab, o‘zining muallifligidagi tushunchaga ta’rif bergan holda barcha yer osti suvlarini samarali himoyani amalga oshirish uchun qonunchilikni takomillashtirish va bu yo‘nalishda yakdil mexanizm ishlab chiqish zarurligi haqida xulosa qiladi.

Dissertatsiyaning “**Yer osti suvlaridan foydalanish va muhofaza qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmi**” deb nomlangan ikkinchi bobida yer osti suvlari bilan bog‘liq munosabatlarni davlat boshqaruvi yo‘li bilan huquqiy tartibga solish mexanizmlar va ularning samaradorligi yoritib berilgan. Bunda yer osti suvlaridan foydalanishga ruxsat berish tartibi, uning ekologik talablari, sohadagi nazorat, monitoring va kadastr yuritishning ahamiyati hamda huquqbuzarliklarni oldini olishdagi o‘rni tadqiq qilingan.

Xususan, “*Yer osti suvlaridan foydalanishga ruxsat berish tartibi*” deb nomlangan birinchi paragrafda yer osti suvlaridan maxsus foydalanish va iste’mol qilish uchun ruxsatnoma olishda belgilangan talablar, ularni ahamiyati, rivojlantirish va yangi mexanizmlar yaratish zaruriyati kabi masalalar yoritib berilgan.

Tahlil natijasida dissertant xorijiy ilg‘or davlatlarning ruxsat berish mexanizmlari asosida to‘liq tahlil etgan holda uni milliy qonunchiligimizga joriy etish lozimligi asoslab berish bilan birga ruxsatnomasiz yer osti suvlaridan maxsus foydalanganlik holatlariga chek qo‘yish zaruriyati va uni kelgusidagi muhim ahamiyati ochib berilgan.

Ikkinchi bobning “*Yer osti suvlaridan foydalanishda ekologik talablar*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida dissertant yer osti suvlaridan foydalanishga qo‘yilgan ekologik talablari, normativlar va me’yor bilan bog‘liq xalqaro hamda milliy ekologik standartlarni tahlil qilgan. Yer osti suvlaridan oqilona foydalanishga oid ilmiy o‘rganishlar, ekologik talablarni bajarmaslik holatlarini keltirib chiqayotgan omillarning ilmiy-nazariy tahlili va ularni bartaraf etishning institutsional asoslari ko‘rsatilgan.

Ikkinchi bobning “*Yer osti suvlaridan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazorati*” deb nomlangan uchinchi paragrafida yer osti suvlaridan foydalanish va uni muhofaza qilishda davlat nazaratining o‘rni va ahamiyati yoritilishi bilan birga maxsus vakolatli davlat organi, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi vakolatlarini kengaytirish va samarali nazoratni amalga oshirish yuzasidan moddiy-texnik hamda kadrlar masalasiga oid muammolar tanqidiy tahlil etilgan.

Ikkinchi bobning to'rtinchi paragrafi *“Yer osti suvlari monitoringini yuritishning huquqiy tartibi”* deb nomlanib, tadqiqotchi tomonidan yer osti suvlari monitoringi ahamiyati, turlari, bir-biridan farqli tomonlari, tarkibi, monitoring institutini xalqaro standartlarga moslash talablari, Smart water texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlari, gidrologik postlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq huquqiy tartiblar haqida xulosa qilindi.

Ikkinchi bobning beshinchi paragrafi *“Yer osti suvlari davlat kadastri va uning innovatsion texnologiyalari”* deb nomlanib, Davlat suv kadastri yuritishning huquqiy asoslari, uni ahamiyati, suv obyektlari, suv resurslari, suv rejimi, sifati haqidagi axborotlarni yuritish tartibi, shuningdek, suvdan foydalanuvchilar, suv iste'molchilari hisobini yuritish, raqamlashtirish, shaffof axborot tizimini yaratish, geoaxborot texnologiyalarini joriy etish hamda prognozlash aniqligini oshirish va bu orqali tizim samaradorligini oshirish mumkinligini asoslab beradi.

Paragraf yakunida dissertant xalqaro hamjamiyat tomonidan yer osti suvlari haqida ma'lumotlar almashinuvida kamchiliklar aniqlanib, kelgusida samarali yer osti suvlarining huquqiy muhofazasini amalga oshirishda milliy va mintaqaviy darajada qonunchilikni uyg'unlashtirish va bu yo'nalishda xalqaro huquqiy asoslarni mustahkamlash zarurligi haqida xulosa qilindi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yer osti suvlaridan foydalanish va muhofaza qilishni takomillashtirishning ilmiy-nazariy masalalari”** deb nomlanib unda yer osti suvidan foydalanish va muhofaza qilish sohasiga oid xalqaro doiradagi hujjatlar tahlili, xalqaro maydonda yer osti suvlari bilan bog'liq munosabatlarni o'zgarib borishi, yer osti suvlariga qo'yilgan xalqaro standartlar, shuningdek, BMTning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti(WHO), Jahon oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti(FAO), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi(UNICEF), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi(UNEP), Jahon Mehnat Tashkiloti(ILO), Jahon Savdo Tashkiloti(WTO), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro rivojlanish agentligi(UNDP)ning yer osti suvlarini xalqaro doirada muhofazasidagi o'rni va ahamiyati o'rganiladi.

Xususan, *“Yer osti suvlaridan foydalanish va muhofaza qilishni takomillashtirishda xalqaro hujjatlarni o'rni va ahamiyati”* deb nomlangan birinchi paragrafda yer osti suvlarining xalqaro muhofazasiga bag'ishlangan Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha Konvensiya va Xalqaro suv oqimlaridan yo'nalishsiz foydalanish huquqi bo'yicha Konvensiyasining ahamiyati, undagi qoidalarni milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish zaruriyati batafsil yoritilgan. Shuningdek, yer osti suvlariga oid xalqaro talablar, ularni dunyo davlatlari qonunchiligida aks etishi bilan bog'liq masalalar yuzasidan xulosa qilinadi.

Uchinchi bobning *“Yer osti suvlaridan foydalanish va muhofaza qilish sohasiga oid milliy qonun hujjatlarini takomillashtirish zaruriyati”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida dissertant yer osti suvlari bilan bog'liq milliy qonunchilikdagi prinsiplari takomillashtirish zaruriyati; yer osti suvlari huquqiy muhofazasida ilg'or tajribaga ega davlatlar: Germaniya, Ukraina, Ozarbayjon kabi davlatlardagi zamonaviy tendensiyaning implementatsiya qilish mohiyati yoritilgan. Bu orqali Suv

kodeksi va boshqa yer osti suvlari bilan bog'liq qonunchilikni mustahkamlash va jahon standartlariga moslashtirishga xizmat qilgan.

Paragraf yakunida dissertant yer osti suvlari xalqaro miqyosda eng nozik va zaif ekologik obyekt ekanligi, unga yetkazilgan zarar bartaraf etish murakkabligi, sohadagi huquqbuzarliklarni ko'pincha aniqlash qiyinligini ta'kidlab, O'zbekiston Respublikasi bu sohadagi huquqiy-amaliy ishlarni jadallashtirish zaruriyati tavsiflangan. Bunda milliy qonunchilikka implementatsiya masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Shuningdek, yer osti suvlari muhofazasi faoliyatida Yevropa Ittifoqi, AQSH, Yaponiya va boshqa davlatlar qonunchiliklari o'rganilgan holda qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi hamda qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qonun loyihasiga takliflar berilgan.

XULOSA

Yer osti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning huquqiy holati tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy, qonunchilikni takomillashtirish hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga taklif va xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy taklif va xulosalar:

1) Bugungi kunda yer osti suvlaridan foydalanishda qator konsepsiya va doktrinalar mavjud. Bular: Absolute dominion (Yer egasi o'z yer uchastkasi ostidagi yer osti suvlari ustidan mutlaq nazoratga ega bo'lib, ularni istalgan miqdorda, ruxsatnomasiz qazib olishi va foydalanishi mumkin, hatto buning natijasida qo'shni yer egalari zarar ko'rishi mumkin), Correlative rights (Bir yer osti suv havzasiga nisbatan huquqqa ega bo'lgan barcha yer egalari yer osti suvlari resurslaridan adolatli va mutanosib ravishda foydalanish huquqiga ega), The reasonable use rule (yer osti suvlaridan foydalanishning qonuniyligini uning oqilonaligi, maqsadi, hajmi va boshqa foydalanuvchilarga hamda atrof-muhitga ta'siri asosida baholovchi huquqiy doktrinadir), Appropriative rights ("birinchi kelgan – birinchi oladi" prinsipi, ya'ni suv resurslaridan foydalanish huquqi suvni birinchi bo'lib, qonuniy va foydali maqsadda o'zlashtirgan shaxsga tegishli bo'lishini hamda ushbu huquq keyingi foydalanuvchilarga nisbatan ustuvor hisoblanishini nazarda tutuvchi huquqiy doktrina), Regulated riparianism (suv resurslaridan foydalanish huquqi yer egaligi bilan bog'liq bo'lishiga qaramasdan, ushbu huquqlar davlat tomonidan litsenziyalash, ruxsatnoma berish va ekologik hamda ijtimoiy manfaatlar asosida qat'iy tartibga solinadigan zamonaviy suv huquqi doktrinasidir).

2) Respublikamizda yer osti suvlaridan foydalanishga oid qonunchilik hujjatlari The reasonable use va Regulated riparianism doktrinalari asosiga qurilgan bo'lib, boshqa doktrinalarning qisman elementlarini ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, yer osti suvlaridan foydalanishga maxsus ruxsatnomalar berishda Appropriative rights ("birinchi kelgan – birinchi oladi" prinsipi) doktrinasi qo'llaniladi. Yer osti suvlaridan foydalanishda yer kimniki bo'lishidan qat'iy nazar, belgilan tartibda ruxsatnoma olish talab etiladi, ya'ni yer egasi (foydalanuvchisi) yer osti suvlariga egalik qila olmaganidek, yer osti suvlardan foydalanuvchi yer osti qudug'i joylashgan yerga egalik qila olmaydi. Bizningcha, O'zbekiston

Respublikasi tomonidan The reasonable use va Regulated riparianism doktrinalari tanlanganligi maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

3) The reasonable use (oqilona, maqsadga muvofiq foydalanish) doktrinasi to'laqonli ishlashi uchun bir qancha takliflar ilgari suriladi: zarur bo'lgan yer usti suv manbalari bo'lmagan hamda yer osti chuchuk suvlarining yetarli zaxiralari bo'lgan hududlarda tasdiqlangan limitlarga muvofiq tog'-kon sanoati va geologiya organlari ushbu suvlardan ichimlik va xo'jalik-maishiy suv ta'minoti bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlar uchun foydalanishga ruxsat berish haqidagi tartiblarni bekor qilish; yer osti chuchuk suvlarini faqat ichimlik va xo'jalik-maishiy suv ta'minoti bilan bog'liq masalalarda foydalanish zarur. Regulated riparianism doktrinasi amalga oshirishda yer qa'ridan foydalanuvchilar yer osti suvlari bilan bog'liq har qanday harakatlari uchun belgilangan tartibda ruxsat olish tartibini joriy etish lozim.

4) Yer qa'ri bilan bog'liq ishlarni amalga oshiruvchilarning majburiyatlarini kuchaytirish, hisobdorligini oshirish maqsadida qator takliflar ilgari surilmoqda. Xususan, qazilma ishlarini amalga oshirish chog'ida yer osti suv qatlamlari aniqlansa, foydali qazilmalarni qazib oluvchi tashkilotlar bu haqda darhol tegishli ijro etuvchi hokimiyat organlarini xabardor qilishi va belgilangan tartibda yer osti suvlarini muhofaza qilish choralarini ko'rishi (yoki yer osti suvlarini chiqarib tashlash texnikasiga ega bo'lsa, alohida ruxsatnoma olishi) shartligi qoidasi taklif etiladi. Bu esa kelgusida yer osti suvlari bilan munosabatlarni ehtiyotkorlik bilan olib borish, ma'suliyatni oshirishga xizmat qiladi.

5) Insonning yashash huquqini tom ma'noda zarur miqdor va sifatdagi toza ichimlik suviga ega bo'lish huquqini ta'minlamasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Demak, insonning toza ichimlik suviga ega bo'lish huquqi uning mutloq va daxlsiz huquqi hisoblanadi, shuning uchun ushbu huquqni uning asosiy huquq va erkinliklari sifatida konstitutsiyaviy maqomda o'rnatilishi lozim bo'lgan ajralmas tabiiy huquqi sifatida e'tirof etish o'rinlidir. Shuningdek, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasiga insonlarning ekologik huquqlari, shuningdek "toza va sifatli ichimlik suviga ega bo'lish" huquqini ham kiritish lozim. Buni quyidagicha ta'riflasak bo'ladi: har bir insonning hayoti va sog'lig'ini ta'minlash uchun zarur bo'lgan, sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan, xavfsiz va yetarli miqdordagi ichimlik suviga erkin hamda kamsitilmasdan foydalanish huquqidir. Shuningdek, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo'mitasining Inson huquqlari bo'yicha Komissarining 2003-yildagi 15-sonli qarori 2-moddasi⁷da ham "Insonlar shaxsiy va kundalik ehtiyojlari uchun yetarli, xavfsiz, sotib olish qobiliyatiga ega bo'lgan darajada suv olish huquqiga ega" deb belgilangan. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilangandek, ijtimoiy davlat mohiyatini yana bir isboti sifatida bu huquqni kiritilish zarur. Buni ta'minlash davlat va boshqaruv organlari oldiga muhim ma'suliyatni yuklab, soha barqarorligiga xizmat qiladi.

6) Yer osti suvlari bilan bog'liq munosabatlarda soha vakillarining bilimini oshirish, xavfsiz munosabatlarni o'rnatilishi bugunning talabidir. Shu sababli, geologiya sohasida faoliyat yuritayotgan universitetlarda konchilik huquqini o'tilishi zarur. Chunki, geolog mutaxassis nafaqat yer qa'rini o'rganadi, balki foydali qazilmalarni qidirish, baholash va o'zlashtirish jarayonlarida ham ishtirok etadi. Bu jarayonlar esa bevosita huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadi. Bu orqali

⁷ <https://www.refworld.org/legal/general/cescr/2003/en/39347>

mutaxassislarning huquqiy bilimini chuqurlashtirish, fanni rivojlantirishga xizmat qiladi. Geologiya yo‘nalishidagi universitetlarda konchilik huquqini o‘qitish – bu faqat nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyat uchun zaruriy asosdir. U mutaxassislarning qonuniy, xavfsiz va samarali ishlashini ta‘minlaydi hamda mamlakat iqtisodiy rivojiga hissa qo‘shadi.

7) Mamlakatimizda yer usti va yer osti suvlarini nazorat qiluvchi davlat tashkilotlari turlicha bo‘lib, ularning nazorat doirasini aniq belgilash zarur. Bu turli tushunmovchiliklar va sansolorliklarni oldi olinishiga erishiladi. Yer osti suvlariga quyidagicha ta‘rif berish taklif etiladi: “Yer osti suvlari — yer sathidan pastda, suvlik hududlarda suv tubidan quyida yer qobig‘ining tog‘ jinslari qatlamlarida joylashgan suvlar bo‘lib, sun‘iy yaratilgan suv havzalari bundan mustasno”. Bunda suv obyektlari hududlarida suv tubidan quyida, ya‘ni yer qobig‘i boshlangan qismidan boshlab joylashgan suvlar yer osti suvlariga taalluqli ekanligini anglatmoqda. Bundan tashqari, yer ostida sun‘iy yaratilgan suv havzalari esa yer osti suvlariga emas, balki yer usti suvlari obyektlari qatoriga kiritishi haqida fikr bildirilgan.

